

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Birinchi
Fisih
Bayrami



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org


©2012 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Tepalikda bir ayol
hafa bo'lib, yig'lab,
o'g'lining o'layotganiga
qarab turar edi.
Uning ismi Maryam
edi. Bu ayol Iso
Masihni hochga
mihlagan joyda
turgan edi.





Bu hodisa qanday sodir bo'ldi? Qanday qilib bu kasofat Isoning boshiga tushdi? Qanday qilib

Hudovand O'z farzandini hochga mihlanishiga yo'l qo'ydi?

Yoki Masih biron hatto qildi? U kim edi O'zi? Yoki Hudo Uni himoya qila olmadimi?





Yo'q! Masih hech qanday hato qilmadi? Aksincha U har doim yovuz odamlar tomonidan hochga mihlanishini bilar edi. Hatto Iso chaqaloqligida Shimo'n degan biro dam Maryamga Isoning ko'p azob chekishini aytgan edi.



Iso o'lishidan
bir necha kun
oldin bir ayol kelib
Uning oyog'iga moy
surtdi. Isoning
shogirdlari "Bu ayol
pulni bekorga sarf
qilayapti ku" deb
norozilik bildirishdi.
"bu ayol to'g'ri ish qilayapti,
u meni ko'mishga tayorlayapti"
dedi Iso ularga.



Shundan keyin Yahudo
Ishqariyot Isoning 12
shogirdlaridan biri Isoni
30 ta kumushga sotdi.




Yahudiylarning Fisih bayramida Iso O'z shogirdlari bilan ohirgi marta tushlik qildi. U Hudo haqida ajoyib narsalarni aytib berdi shuningdek Isoni sevadiganlarga ko'p va'dalar berdi.



Keyin Iso non bilan suvni olib ular bilan boham ko'rdi va bu gunohlarga kechirim keltiradigan, Isoning tanasi va qoni haqida eslatma ekanligini aytdi.




Keyin Iso O'z shogirdlariga O'zining hiyonat qilinishi va ularning qochib ketishini aytdi. Shunda Butrus "Men hech qachon qochib ketmayman" dedi. "Ho'roz qichqirishidan oldin sen mendan 3 marta tonasan" dedi Iso unga.





O'sha kechasi Iso Gefsemaniya bog'iga borib ibodat qildi: "Ey Otam agar mumkin bo'lsa bu zaqqum kosa Mening yonimdan o'tib ketsin. Lekin Men istagandek emas, Sen istagandek bo'lsin" -dedi. U shogirdlari yoniga qaytib kelganida, ularni uhlab yotgan holda ko'rdi.




To'satdan uning shogirdi
Yahudo askarlar bilan
kelib qoldi. Iso
qarshilik qilmadi lekin
Butrus bir askarning
qulog'ini kesib tashladi.
Ammo Iso askarning
qulog'iga qo'lini qo'yib
uni shifoladi. Bu
Hudoning irodasiga
ko'ra sodir bo'ldi.



Askar Isoni oily ruhoniyyga olib bordi. U yerda yahudiy farziylari Isoni o'ldirishga qaror qildilar.


Osha yaqinda Butrus turib bo'layotgan hodisalarni kuzatar edi.



Odamlar undan 3 marta Iso bilan ekanligini
so'radilar, u esa 3 marta ham rad javobini berdi. U
hatto Isoni bilmaslikka
qasam ichdi.




COCK-A-
DOODLE-DOO



O'sha zahoti ho'roz
qichqirdi. Butrusga
Isoning so'zlari keldi
va u tashqariga chiqib
qattiq yig'ladi.





Yahudo ham qilgan ishlaridan
pushaymon bo'ldi chunki u
Isoning begunohligini bilar edi.
Yahudo 30 kumush tangani
oily ruhoniylarga qaytarib
bermoqchi edi lekin ular
kumush tangani qaytarib
olmadilar.





Yahudo kumush
tangalarni yerga
tashlab, o'zini
osdi.






Ruhoniylar Isoni Pilatning yoniga keltirdilar. Pilat: "Men bu Odamda hech bir ayb topmadim" - dedi, lekin omma: "Uni hochga mihla" - deb baqirishar edi.




Nihoyat Pilat Isoni hochga
mihlash uchun qaror chiqardi.
Askarlar Isoni hamchinlab
yuziga tupurdilar. Ular
Isoning boshiga tikanni
kiydirib bosishdi. Keyin
Uni hochga mihlashdi.



Iso shu yo'l bilan o'lishini bilardi. U shuningdek Uning o'limi agar gunohkorlar Uning nomiga ishonsalar bu - gunohkorlarga kechirim olib

kelishini bilar edi. Ikkita jinoyatchi Iso bilan birga hochga mihlandi. Ulardan biri Isoga ishonib abadiy hayotga ega bo'ldi, ikkinchisi esa yo'q.



Iso soatlab a'zob chekib:
"amalga oshdi" dedi so'ng
jon berdi. Uning
vazifasi tugadi.
Uning o'rtoqlari
Uni qabrga
qo'yishdi.



Keyin Rim askarlari qabr toshiga muhr bosib, qabrni qorovullay boshladilar, hech kim u yerga kirolmas edi.



Agar bu hikoyaning ohiri
bo'lganda edi bu naqadar
ayanchli bo'lar edi.
Hudovand mo'jiza
yaratdi. Iso o'liklar
ichida qolmadi
balki U tirildi.



Erta sahar haftaning birinchi kunida, Isoning ba'zi shogirdlari qabrga borib toshni ag'darib yuborilganligini ko'rdilar. Ular qabr ichiga kirganlarida Isoni u yerda topolmadilar.



Bir ayol qabr oldida yig'lab turar edi.
Iso unga zohir bo'lib: "Iso tirik!
Iso o'liklar ichidan qaytdi" - dedi,
bu ayol shosha pisha chiqib
katta sevinch va qo'rquv
ila yugurib Isoning boshqa
shogirlariga habar bergani
ketdi.



Tez orada Iso shogirdlarining ildiga keldi va O'zining mih urgan qo'llarini ularga ko'rsatdi. Bu haqiqat edi. Iso qaytadan tirildi! U Butrusni Uni rad qilganini kechirdi, va shogirdlariga butun dunyo bo'ylab hushhabar yetkazishlarini aytdi.



Birinchi Fisih Bayrami

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 26-28, Luqo 22-24, Yuhanno 13-21

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

